Uzbekistan Airways Londonga aviaqatnovlar sonini oshirmoqda

2023 24 Fevral

2023-yilning 26-martidan boshlab Uzbekistan Airways Toshkentdan Londonga muntazam aviaqatnovlar sonini oshiradi. Toshkent – London – Toshkent aviaqatnovlari haftasiga uch marta – seshanba, juma va yakshanba kunlari amalga oshiriladi.

Seshanba va juma kunlari HY201 Toshkent – London va HY202 London – Toshkent reyslari quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi:

• Toshkentdan uchish mahalliy vaqt (Toshkent) bilan soat 11:10 da

• Londonga kelish mahalliy vaqt (London) bilan soat 14:50 da

• Londondan uchish mahalliy vaqt (London) bilan soat 16:20 da

• Toshkentga kelish mahalliy vaqt (Toshkent) bilan ertasi kuni soat 03:10 da

Yakshanba kunlari HY203 Toshkent – London va HY204 London – Toshkent reyslari quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi:

• Toshkentdan uchish mahalliy vaqt (Toshkent) bilan soat 12:30 da

• Londonga kelish mahalliy vaqt (London) bilan soat 16:10 da

• Londondan uchish mahalliy vaqt (London) bilan soat 17:25 da

• Toshkentga kelish mahalliy vaqt (Toshkent) bilan ertasi kuni soat 04:15 da

Toshkent – London yo‘nalishi bo‘yicha aviachiptalar narxi 3 227 000 so‘mdan, Toshkent – London – Toshkent yo‘nalishida esa 7 452 000 so‘mdan boshlanadi.

Aviachiptalarning taqdim etilgan narxlari 2023-yil 24-fevral holatiga ko‘ra amal qiladi.

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy www.uzairways.com sayti, shuningdek, “UzAirways” mobil ilovasi, Uzbekistan Airways Sales orqali yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qiling.